

GENDER MUNOSABATLARDA DESPOTIZMNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI ETNIK OMILLAR

Tovbayeva Mukaddam Safarovna

*(PhD) Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. International School of Finance
Technology and Science instituti Samarqand filiali Gumanitar fanlar kafedrası
v.b.dotsenti,*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayollarga nisbatan despotizm, zo'ravonlik va mutlaq hukmronlik kabi salbiy ijtimoiy hodisalarni kamaytirishda etnik va madaniy omillarning o'rni tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida turli etnik guruhlarining oilaviy qadriyatlari, an'anaviy va urf-odatlarining xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishdagi ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan. Gender tengligini ta'minlashda etnik-madaniy kontekstni hisobga olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *gender despotizmi, etnik omillar, an'anaviy qadriyatlar, mahalla instituti, xotin-qizlar huquqlari, ijtimoiy profilaktika, mentalitet.*

KIRISH

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik (gender despotizmi) global miqyosdagi eng jiddiy ijtimoiy, huquqiy va gumanitar muammolardan biri bo'lib qolmoqda. XXI asrda inson huquqlari va gender tengligi borasida ulkan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ko'plab jamiyatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va oilaviy hayotdagi huquqlarini cheklash, ularga nisbatan mutlaq hukmronlikka intilish holatlari hamon kuzatilmoqda.

Gender munosabatlar va oilaviy institutlar muayyan jamiyatning asrlar davomida shakllangan etnik madaniyati, urf-odatlari va mentaliteti bilan uzviy bog'liqdir. Etnik omillar sub'ektlarning xulq-atvorini, oiladagi rollar taqsimotini va jamiyatning zo'ravonlikka bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Muammoning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan asrash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, hududlardagi etno-madaniy xususiyatlar, urf-odatlarni noto'g'ri talqin qilish holatlari ayollarga nisbatan despotizm shakllarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, etnik omillarning xotin-qizlar huquqlariga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish va undagi ijobiy mexanizmlardan zo'ravonlikka qarshi kurashda foydalanish o'ta dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi — ayollarga nisbatan despotizm va tazyiqni kamaytirishda etnik omillar, milliy qadriyatlar va an'anaviy ijtimoiy institutlarning ta'sir doirasini aniqlash hamda ulardan ijobiy vosita sifatida foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Gender despotizmi va uning namoyon bo'lish shakllarini etno-ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish.
2. Turli etnik guruhlar madaniyatida ayolga bo'lgan munosabat va huquqiy maqomni qiyosiy o'rganish.
3. An'anaviy ijtimoiy institutlarning (mahalla, oila, urug'-aymoqchilik munosabatlari) zo'ravonlikni kamaytirish yoki aksincha, uni berkitishdagi rolini aniqlash.
4. Etnik qadriyatlarni zamonaviy gender tengligi tamoyillari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil, sotsiologik so'rovnoma va ekspertlik baholash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot 2025-2026 yillar davomida O'zbekistonning turli etnik va madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan hududlarida (Toshkent shahri, Samarqand viloyati va Xorazm viloyati) olib borildi.

Sotsiologik so'rovnoma (Anketlashtirish): Tadqiqotda jami 120 nafar respondent ishtirok etdi (ulardan 65% ayollar, 35% erkaklar). Respondentlar turli yosh guruhlari (20 yoshdan 60 yoshgacha) va turlicha etnik kelib chiqishga (o'zbek, qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus va boshqalar) ega.

Fokus-guruh muhokamalari (FGD): Hududlarda jami 8 ta fokus-guruh tashkil etildi. Har bir guruhda mahalla faollari, xotin-qizlar faollari, psixologlar va diniy ulamolar ishtirok etishdi.

Ijtimoiy so'rovnomadan olingan miqdoriy ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. Etnik omillar va zo'ravonlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi. Sifat ko'rsatkichlari esa kontent-analiz metodi orqali guruhlashtirildi.

Natijalar

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, etnik omillar va milliy mentalitet ayollarga nisbatan munosabatni shakllantirishda ikki yoqlama (ambivalent) xarakterga ega. Bir tomondan, an'anaviy qadriyatlar ayolni e'zozlashni targ'ib qilsa, ikkinchi tomondan, patrialxal stereotiplar despotizmga zamin yaratadi.

Etnik madaniyat va oilaviy model munosabatlari

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning oiladagi qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki etnik guruh va yashash hududiga qarab farq qiladi:

Etnik guruh / Hududiy xususiyat Oilada mutlaq erkak kishi hukmron Qarorlar
birgalikda qabul qilinadi Ayol ustunligi

An'anaviy qishloq hududlari (O'zbek, Tojik) 62% 31% 7%

Shahar aholisi 24% 68% 8%

Jadvaldan ko'rinadiki, an'anaviy qishloq joylarida patriarxal oilaviy model ustunlik qiladi va bu joylarda ayollarga nisbatan er yoki uning oilasi tomonidan "mutlaq hukmronlik" (despotizm) ko'rsatkichlari yuqoriroq.

Despotizm va zo'ravonlik shakllarining etnik konteksti

Tadqiqot davomida ayollarga nisbatan tazyiqning quyidagi shakllari etnik omillar bilan qay darajada bog'liqligi o'rganildi:

- Iqtisodiy zo'ravonlik: Traditsion etnik guruhlarda ayolning ishlashi yoki moliyaviy mustaqilligiga to'sqinlik qilish darajasi yuqori (so'ralgan qishloq ayollarining 45 foizi erlarining ruxsatisiz pul sarflay olmasligini bildirgan).

- Psixologik tazyiq: "Kelinlik xizmati", "andisha", "sabr-toqat" kabi etnik-madaniy tushunchalar ko'p hollarda ayollarni o'z huquqlari uchun kurashmaslikka, tazyiqlarga chidashga majbur qiladi. So'rovda qatnashgan ayollarning 58 foizi oilaviy janjallarni mahalla yoki huquq tartibot organlariga bildirishni "etnik nomus" (uyat) deb hisoblaydi.

An'anaviy institutlarning roli: Mahalla va faollar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalliy etnik institut hisoblangan "Mahalla" tizimi zo'ravonlikni kamaytirishda ulkan salohiyatga ega, biroq undan foydalanish samaradorligi past.

- Salbiy tajriba: Fokus-guruh ishtirokchilarining 35 foizi mahalla faollari oilaviy zo'ravonlik holatlarida ko'pincha ayolni "sabr qilishga" chaqirishi va muammoni yopdi-yopdi qilishga urinishini ta'kidladi.

- Ijobiy tajriba: Shu bilan birga, mahalladagi keksa avlod vakillari va oqsoqollarning obro'sidan foydalanib, tajovuzkor erkaklarni tartibga solish, oilaviy ajrimlarning oldini olish samaradorligi 42% holatlarda ijobiy natija bergan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollarga nisbatan despotizmni kamaytirishda etnik omillarni inkor etish emas, aksincha, ularni chuqur tahlil qilib, destruktiv elementlarni konstruktiv qadriyatlardan ajratib olish lozim.

G'arb mamlakatlaridan farqli o'laroq, Sharq jamiyatlarida, xususan, Markaziy Osiyoda gender tengligini radikal liberalizm orqali joriy etish ko'pincha ichki madaniy qarshilikka (reaksiyaga) sabab bo'ladi. Jamiyat buni "milliy o'zlikka tahdid" sifatida qabul qilishi mumkin. Shuning uchun, maqsadga erishish uchun etnik qadriyatlarning ichki progressiv resurslariga tayanish zarur.

Masalan, o'zbek va qoraqalpoq etnomadaniyatida ayol — faqatgina boquvchi yoki xizmatkor emas, balki "oila chirog'i", "uyning ko'rki" va kelajak avlod tarbiyachisi sifatida yuksak qadrlanadi. Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ayol shaxsiga bo'lgan hurmat etnik ongimizning fundamental qismidir. Despotizm — bu asl milliy qadriyat emas, balki tarixiy inqirozlar, savodsizlik va xurofot natijasida shakllangan marginal xulq-atvordir.

Tadqiqotimiz mahalla institutining rolini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi. Mahalla oilaviy zo'ravonlikni "yashiruvchi" maskan emas, balki uning oldini oluvchi va ayolni himoya qiluvchi asosiy etno-ijtimoiy qalqonga aylanishi kerak. Buning

uchun mahalla xotin-qizlar faollarining huquqiy va psixologik savodxonligini oshirish talab etiladi.

Muhokama qilinishi kerak bo'lgan muhim jihat — madaniy relativizm muammosidir. Hech bir "etnik an'ana" yoki "urf-odat" inson huquqlarining toptalishini, jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikni oqlay olmaydi. Agar etnik odat ayol huquqlarini cheklashga xizmat qilsa (masalan, qizlarni erta turmushga berish, ta'lim olishiga taqiqlash), davlat va jamiyat ushbu odatga nisbatan murosasiz bo'lishi shart.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Etnik omillarning ta'siri: Ayollarga nisbatan despotizm va tazyiq holatlari ko'p jihatdan etnik muhitda saqlanib qolgan patriarxal stereotiplar va urf-odatlarining noto'g'ri talqini bilan bog'liq.

2. Resursli yondashuv: Etnik madaniyat tarkibidagi ijobiy qadriyatlar (ayolga ehtirom, oila muqaddasligi, jamoaviy qo'llab-quvvatlash) zo'ravonlikka qarshi kurashda eng samarali ijtimoiy vosita bo'la oladi.

3. Institutlar integratsiyasi: Davlat qonunlarining kuchi va an'anaviy mahalla institutining nufuzi birlashtirilgandagina gender despotizmini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Amaliy tavsiyalar:

- Etno-gender ta'lim dasturlari: Hududlardagi yoshlar uchun nikohdan oldin o'tiladigan kurslarda milliy qadriyatlar va zamonaviy gender tengligi tamoyillarini uyg'unlashtirgan holda o'qitish tizimini yo'lga qo'yish.

- Media strategiya: OAV va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek va boshqa etnik madaniyatlardagi buyuk ayollar timsolini, oilada ayoliga hurmat ko'rsatgan erkaklar obrazini (etnik qahramonlarni) ommalashtirish.

- Mahalla faollari filtri: Mahalla raislari va xotin-qizlar faollari uchun oilaviy zo'ravonlik holatlarini "yopish" uchun javobgarlikni kuchaytirish, ularni jabrlanuvchi tomonda turib qaror qabul qilishga o'rgatish.

- Qonunchilikni mahalliyashtirish: Gender zo'ravonlikka qarshi qonunlarni targ'ib qilishda quruq huquqiy terminlardan emas, xalqchil, etnik mentalitetga mos va tushunarli tildan hamda diniy-ma'rifiy argumentlardan unumli foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. T., 2019.

2. Akramova F.A., Tovbayeva M.S. Oiladagi zo'ravonlikning ijtimoiy-psixologik masalalari. Monografiya. -Toshkent: «Lesson-press» nashriyoti, 2021. – 124 b.

3. Брюкнер М. Насилие в семье: локальные действия – международная проблема. Журнал исследований социальной политики, 2011. -С. 42.

4. Каримова В. Оила ҳимояси давлат сиёсатининг устувор йўналиши // HUQUQ VA BURCH. – №5. – Т., 2007.

5. Товбаева М.С. Негативные отношения в семье как основной фактор насилия и необходимые профилактические рекомендации // Современная наука: Тенденции развития. Материалы Международной научно-практической конференции. г.Кишинев, Молдавия. 23 сентября. 2021 г. –С.33-39.